

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(55 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(55 KB\)](#)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi Sariyev Kaxraman Ramatullayevichning 8 mart xalqaro Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan Respublika Xotin-qizlariga yullagan tabrik so'zi

Assalomu-alaykum, muhtarama onaxonlar! Munis va mehribon opa-singillar! Aziz bayram ishtirokchilari!

Tabiat uyg'onib, tobora chiroy ochayotgan mana shu shukuhli ayyomda siz, azizlarni, 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Hayotimizning ma'no-mazmuni va go'zalligini birinchi navbatda barchamizni dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga etkazgan muqaddas Ona siymosida, ayol timsolida ko'rib, ayol zotini Yaratganning tengsiz mo'jizasi, deb ulug'laymiz.

O'zining mehribonligi, qalb saxovati bilan farzandlarimiz yuragiga o'z ona yurtiga sevgi va sadoqat tuyg'usini singdiradigan bu-ayollarimiz-onalarimizdir.

Barchamizga ayonki, davlatimiz va jamiyatimizning nufuzi va madaniy darajasini naqadar yuksakligini belgilaydigan mezonlarimiz juda ko'p. Lekin xalqimizning ma'naviy kamolotini yaqqol aks ettiradigan shunday bir mezon borki, u ham bo'lsa, jamiyatimizning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, hurmatidir.

Prezidentimiz rahnamoligida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirokini ta'minlash, farzand tarbiyasi, oiladagi mas'uliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani samarasida deputatlar, korxonalar va tashkilot, fermer xo'jaliklari rahbarlari, ilm-fan namoyandalari orasida xotin-qizlar safi tobora kengayib bormoqda.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ming 250 nafardan ziyod xotin-qiz turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi 3 nafar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga 4 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'rg'ori Kengashiga 12 nafar, shahar va tuman Kengashlariga 85 nafar xotin-qiz deputat etib saylangani ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilayotgan ulkan e'tiborning amaliy ifodasidir. Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida 168 nafar olimlar ayollar ilm-fan taraqqiyoti yo'lida samarali mehnat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

PF-5325-sonli Farmoni xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim omil bo'layotir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2017 yilda xotin-qizlar uchun qariyb 15 802 yangi ish o'rni yaratildi. Xotin-qizlar o'rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor samarasida o'z biznesini yo'lga qo'yib, oilasiga, el-yurtga naf keltirayotgan ayollarimiz safi kengayib bormoqda. Ayni paytda 8 ming dan ortiq ayollar shu sohada faoliyat ko'rsatmoqda. 2017 yilda tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 2 259 nafar tadbirkor ayolga jami 122 238,9 mln.so'm kredit mablag'lari ajratildi. Shuningdek, boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun 494 nafar ayolga 30 mlrd 465 mln 500 ming so'm miqdoridagi kredit mablag'lari ajratilgan.

O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta strategik yo'nalishlarining amalga oshirishning 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da, Davlat dasturi doirasida ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan juda ko'plab chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilangan.

Prezidentimiz rahnamoligida sport bilan doimiy turda shug'ullanuvchi qizlar faolligi O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro miqyosida sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan qizlar soni ko'payishiga imkon yaratdi. Shu o'rinda Xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi bir kator musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini yuqoriga kutargan sportchi qizlarimiz qatori yil sayin ko'paymoqda.




Jumladan, sportchi qizimiz Zaynab Dayibekova O'zbekiston tarixida birinchi marotaba sportning qilichbozlik yo'nalishi bo'yicha bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida fahrli 3-o'rinni egallab, O'zbekiston Qilichbozlik federatsiyasining qaroriga ko'ra "Yilning eng yaxshi sportchisi" dep topildi. 2017 yilning dekabr oyida Turkiyada bo'lib o'tgan Jahon chempionatida Allanazarova Amangul fahrli 2-o'rinni, 2018 yil fevral oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida 1-o'rinni egalladi. Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida Isenbaeva Nabira sportning "Erkin kurash" turi bo'yicha fahrli 2-o'rinni egalladi. Italiya va Antaliya shahrida bo'lib o'tgan evropa ochiq kubogida ermaganbetova Nilufar fahrli 2-o'rinni egalladi.

Shuningdek, joriy yilning 16 fevral kuni "Yilning eng yaxshi mas'ul kotibi" ko'rik tanlovining respublika bosqichida 2017 yil yakuni bo'yicha Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha Xo'jayli tumani idoralararo komissiyasi mas'ul kotibi Naranova Farangiz Zokirovna ushbu tanlovning g'olibi deb topildi.

Men so'zning oxirida yana bir bora barcha ayol-qizlarimizni go'zallik va nafosat bayrami bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman. Oilalaringizga tinchlik hotirjamlik fayzu baraka, o'zlaringizga sog'-salomatlik, uzoq umr tilayman.

E`tiboringiz uchun, Raxmat! Bayram barchangizga qutlug` muborak bo`lsin!

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)